

Yuqori Chirchiq tumani Xalq ta'limi bo'limi  
12- maktabni Spart zalini joriy ta'mirlash bo'yicha  
9-sonli pudrat shartnomasi

2022 y. «3» 8

243-10-145-XT/2022-  
son

YuqoriChirchiq t.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Yuqori Chirchiq tumani Xalq ta'limi bo'limi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi raxbar U.Urunboeva. bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "OOO MEGA-OSIYO" МЧЖ "nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor **Нурматов Р.Х** ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda "Taraflar" deb yuritiladi, mazkur pudrat shartnomasini, keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb yuritiladi, quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

### TARIFLAR

Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

**ijro hujjatlari** - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

**qurilish maydoni** - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

**vaqtinchalik inshootlar** - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

**berkitiladigan ishlar** - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

### I. SHARTNOMA MAVZUSI.

1.1. Pudratchi mazkur "12 maktabni Sport zalini joriy ta'mirlash" ob'ekti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan va ajratilgan limit mablag'lari doirasida ishlarni bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi o'z navbatida Pudratchiga ishlarni bajarishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### II. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, tanlov savdosi natijasida aniqlangan va komissiyasining bayonnomasi bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda 870277461 QQ S bilan (Sakkiz yuz yetmish million ikki yuz yetmish yetti ming to'rt yuz oltmish bir ) so'mni tashkil etadi.

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas. Quyidagi hollar bundan mustasno: qurilish muddatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.



### III. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

3.1. Mazkur shartnoma shartlari bajarilishi bo'yicha Pudratchining majburiyatlari:

- shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) kunlik muddat ichida qurilishni tashkillashtirish va ishchi tarmoq jadvalini ishlab chiqish va buyurtmachi bilan kelishish;
- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga 1 - ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
- qurilish maydoniga zarur bo'lgan muvofiqlik sertifikatlariga ega qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, jixozlar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlarni etkazish, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;
- har hisobot oyining 27 sanasiga qadar, Buyurtmachiga bajarilgan ishlarni qiymati bo'yicha o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan oylik ma'lumotnoma-hisob-fakturani va unga ijro hujjatlarini taqdim qilish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qurilish normalari va qoidalariga rioya qilgan holda bajariladigan ishlarni loyiha hujjatlari, dastlabki hisob-kitob, shartnomaviy qiymati asosida olib borish;
- loyiha-smeta hujjatlari tayyor bo'lmagan holda (loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni qurilish-montaj ishlari bilan bir vaqtda olib borishga ruxsat berilgan yoki belgilangan muddatda kelishilgan/tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarini olinmagan holda) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qurilish normalari va standartlarini qo'llagan holda ishlarni olib borish (loyihachi va buyurtmachi bilan kelishgan holda);
- loyiha-smeta hujjatlariga kiritilgan, ob'ektga zarur bo'lgan (foydalanuvchi tashkilot bilan kelishilgan holda) texnologik jixozlar va mebel inventarlarni etkazib berish uchun yordamchi pudratchi hamda etkazib beruvchilarni (ishlab chiqaruvchi korxonalar) Pudratchi mustaqil ravishda o'rnatilgan tartibda tanlash va ob'ektni to'liq jixozlash;
- Barcha soliqlar, Subpudratchilar, ishchi xodimlar, yollanma ishchilar, jixozlar va mebel inventarlarni etkazib beruvchi yordamchi pudratchilar hamda etkazib beruvchilarni (ishlab chiqaruvchi korxonalar) oldidagi hosil bo'ladigan qarzdorliklarni o'z vaqtida to'lash hamda o'rtada kelib chiqadigan nizorlarni o'zaro xal etish;
- loyiha-smeta hujjatlariga qat'iy amal qilish, loyiha-smeta hujjatlariga kiritilmagan qo'shimcha ishlar va o'zgartirishlarni o'z boshimchalik bilan bajarmaslik, ularni albatta loyihachi va buyurtmachi bilan kelishish;
- Buyurtmachidan ob'ektni qabul qilib olgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida ob'ektning tashqi tomoni hamma tarafidan qurilish ishlarini kuzatish imkonini beradigan darajada kuzatuv vidokameralarini o'rnatish va Buyurtmachiga internet tarmog'i orqali kuzatish imkoniyatini yaratish;
- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik bino-inshootlar qurish;
- qurilish maydonida texnika xavfsizligi bo'yicha zarur tadbirlarni o'tkazishni ta'minlash va ishchi xodimlar yoki yollangan xodimlar, shu jumladan subpudrat tashkilotlari tomonidan texnika xavfsizligi ta'minlanmagan holda javobgarlikni o'z zimmasiga olish, qurilish davrida atrof-muhitni, yashil maydonni saqlash va yoritish tizimini o'rnatish;
- 3 (uch) kundan kam bo'lmagan muddatda topshirishga tayyor konstruksiyalar va yashirin ishlar tayyorligini hamda keyinchalik mazkur ishlarni, tasdiqlovchi dalolatnomalar asosida topshirilishi bo'yicha Buyurtmachiga xabar berish;
- ishlar boshlangan davrdan boshlab va tugaguniga qadar belgilangan shaklda ishlar bajarish jurnalini olib borish, unda qurilish ishlari ham pudratchining o'zi, ham jalb qilingan subpudratchilar tomonidan qayd etiladi va ishlar tugaganidan so'ng vakolatli shaxs tomonidan ishlar bajarish jurnalini tasdiqlanib, Buyurtmachiga taqdim qilinadi;
- bajarilgan ishlarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab, 1 (bir) oy ichida qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish va ob'ektni tozalash;
- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
- qurilish maydonini xavfsizligini ta'minlash;
- Buyurtmachining birinchi talabiga asosan buyurtmachidan olingan mablag'larni maqsadli sarflanishi bo'yicha moliyaviy hisobotni (tasdiqlovchi hujjatlar bilan) taqdim qilish;
- ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq bajarish;



3.2. Pudratchi Buyurtmachi oldida ob'ektda bajarilgan ishlarni to'liq o'z kuchi va/yoki subpudratchi tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshirilganligiga va ob'ekt bo'yicha Davlat qabul komissiyasiga (SHNK 3.01.04-04) taqdim qilish uchun tayyorgarligini ko'rsatuvchi Ishchi qabul komissiyasi dalolatnomasi bilan 5.2.-bandda ko'rsatilgan muddatlarda topshirishga mulkiy javobgar hioblanadi.

3.3. Pudratchi ushbu shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga topshirilguniga qadar egalik huquqini saqlab qoladi. Buyurtmachiga topshirilgunga qadar pudratchi ob'ektni tasodifiy yo'q qilish va buzish xavfini o'z zimmasiga oladi.

3.4. Qurilish uchun ajratilgan mablag'larni belgilangan maqsadlarda ishlatish.

3.5. Qurilish maydonini tozalash va tegishli sanitariya holatini ta'minlash.

3.6. Pudratchi jalb qilingan ishchilar oldida amaldagi me'yoriy hujjatlar va mehnat va ish haqi masalalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish, qurilishi maydonida ishlash va dam olish uchun normal sharoitlar yaratish va ish haqi uchun o'z vaqtida haq to'lashni ta'minlash uchun javobgar.

3.7. Pudratchi ob'ektda ishlarni bajarish uchun jalb qilingan ishchilarning xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha javobgardir va xodimlar tomonidan texnologik va ishlab chiqarish intizomining buzilishini oldini olish uchun tegishli choralarni ko'radi va qonun oldida o'rnatilgan tartibda javob beradi;

3.8. Pudratchi ob'ektda ishlarni tugatib bolgandan sung ob'ektni laboratoriya tekshiruvidan otkazadi.

3.9. Pudratchi ob'ektda ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng ishlarni qurilish ob'ektni nazorat ulchovi tekshiruvidan otkazadi.

#### IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnoma shartlari bajarilishi bo'yicha buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangunga qadar bo'lgan davrga Pudratchiga taqdim qilish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish. Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- pudratchining barcha murojaatlarini o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

- Davlat ekspertizasidan o'tgan loyiha-smeta hujjatlarini Pudratchiga taqdim qilish;

- ushbu shartnomaning 6-bo'limiga muvofiq, ob'ekt bo'yicha pudratchiga Moliya organlari tomonidan mablag'lar ajratilgandan so'ng va Buyurtmachining ob'ekt uchun ochilgan maxsus hisob raqamiga mablag'lar kelib tushgan davrdan boshlab moliyalashtirishni amalga oshirish;

- ob'ektda bajariladigan ishlar ustidan texnik nazorat olib borish;

- o'rnatilgan tartibda Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq bajarish;

4.2. Buyurtmachi:

- moliyalashtirilgan mablag'larni maqsadli sarflanishi bo'yicha Pudratchidan moliyaviy hisobot talab qilish;

- Pudratchi tomonidan ijro hujjatlari taqdim qilinmaganda yoki lozim darajada taqdim qilinmaganda bajarilgan ishlarni qabul qilishni rad qilish;

- ob'ektda qurilish-montaj ishlarining istalgan bosqichida nazorat o'lchovini o'tkazish;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari buzilgan holda Pudratchini xat bilan ogoxlantirib, shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarini o'rnatilgan tartibda Pudratchi tomonidan qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etmaguniga qadar to'xtatish;

- amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa huquqlarga ega.

4.3. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatlarini bajargunga yoki 2022 yilning 31 dekabr sanasiga qadar amal qiladi.

4.4. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar Pudratchi tomonidan ish jadvaliga muvofiq quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:



ishning boshlanishi – 2022 yil \_\_\_\_;

Ishni yakunlash – 2022 yil \_\_\_\_;

## V. Taraflarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ma'suliyati.

5.1. Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

5.2. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'ymaydilar.

5.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar:

- pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;
- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;
- pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.

5.4. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar. jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

5.5. Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

5.6. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinganda shuningdek, shartnomaning 5.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

## VI. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

6.1. Toshkent viloyati G'aznachiligidagi ob'ektning shaxsiy xisob varag'iga moliyalashtirish tashkilotidan tushgandan so'ng 10 (o'n) kun ichida amalga oshiriladi.

6.2. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar hajmi va sifati tekshirilgandan keyin, har oyda ajratilgan avansni mutanosib ravishda ushlab qolishni hisobga olgan xolda, ishlarni bajarish hamda moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 100 foizigacha buyurtmachining ob'ekt bo'yicha Toshkent viloyati G'aznachiligidagi hisob raqamiga moliyalashtirish tashkilotidan mablag'lar kelib tushgandan so'ng, to'lov amalga oshirilib boriladi.

Taraflar tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ob'ektda bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi hisob-fakturalar joriy moliyalashtirish uchun asos hisoblanadi.

6.3. Ob'ektda bajarilgan ishlar qiymatining , ushbu shartnomada nazarda tutilgan kafolat muddati tugaganidan keyin (foydalanuvchi tashkilotdan kamchiliklar mavjud emasligi to'g'risida dalolatnoma va boshqa tegishli hujjatlar buyurtmachiga taqdim etilgandan so'ng) hamda buyurtmachining ob'ekt bo'yicha shaxsiy hisob raqamiga mablag'lar kelib tushgandan so'ng, amalga oshiriladi.

6.4.30% Avans to'lovlari, joriy moliyalashtirish va ob'ekt uchun yakuniy hisob-kitoblar Buyurtmachi tomonidan ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga (1,2-sonli ilovalar) muvofiq, qurilish loyihalarining Moliya organlari tomonidan ajratilgan mablag'larga tasdiqlangan manzilli ro'yxatiga asosan kapital qo'yilmalar doirasida buyurtmachining ob'ekt bo'yicha shaxsiy hisob raqamiga mablag'lar kelib tushgandan so'ng, amalga oshiriladi. Bunda 70 foizgacha bo'lgan yakuniy to'lovlar Pudratchilar tomonidan hisob-fakturalarga tegishli asoslovchi (texnik nazoratchining talabiga ko'ra) barcha xujjatlar Buyurtmachiga taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi.

## VII. ISHLARNI BAJARISH

7.1. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni (nazoratchi) tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar hajmi va sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi.



SHuningdek, Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va jihozlarni shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqligini tekshiradi (zarur xollarda tegishli asoslovchi xujjatlarni talab etadi).

7.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.

7.3. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

7.4. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning V bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

7.5. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini "Qurilish sohasida Toshkent viloyat hududiy nazorat inspeksiyasi" bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

7.6. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

7.7. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

7.8. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

7.9. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi. Bunda qurilish davrida elektr, suv, gaz va boshqa kommunal xizmatlardan vaqtincha foydalanganlik uchun sarflangan xarajatlarni Pudratchi o'z mablag'laridan qoplaydi.

7.10. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifati tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

7.11. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Qurilish sohasida Toshkent viloyat hududiy nazorat" inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

7.12. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

7.13. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

7.14. Agar Buyurtmachi Pudratchi tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Sifatsiz bajarilgan ishlar va ularni tuzatish Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasida ikki tomonlama dalolatnoma asosida bajariladi. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Qurilish sohasida Toshkent viloyat hududiy nazorat" inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

7.15. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha yo'l chizmasini (polosasini), shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni tozalab va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish chiqindisini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

7.16. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarlarini (jurnal) yuritadi.

Pudratchi daftarlarda (jurnal) Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.



7.17. Pudratchilarning soliqlar, subpudratchilar, ishchi xodimlar, yollanma ishchilar, jixozlar va mebel, inventarlarni etkazib beruvchi yordamchi pudratchilar hamda etkazib beruvchilarni (ishlab chiqaruvchi korxonalar) oldidagi hosil bo'ladigan qarzdorliklarni o'z vaqtida to'lanmaganligi hamda ular o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni xal etish masalalari Buyurtmachi majburiyatiga kirmaydi;

7.18. Pudratchi shartnomada belgilangan muddatlarda ob'ektni foydalanishga topshirilgandan so'ng, 1 oydan kechiktirmagan holda yakuniy hisob-fakturasini rasmiylashtirishga majbur. Aks holda Buyurtmachi ob'ektni yakuniy qiymati etib, ob'ektni foydalanishga topshirilgan vaqtdagi qiymatini qo'yishga xaqli.

### VIII. ISHLARNI QO'RIQLASH

8.1. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallanguncha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar atrofi o'ralgan (to'silgan) qurilish maydoni xududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi. Qurilish davrida ob'ektga videokamera moslamalarini o'rnatadi.

8.2. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek, materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

### IX. ENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI

9.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda o'zaytiriladi.

9.2. Agar engib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar kurilishini muxokama qiladilar.

9.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

### X. QURILISHI TUGALLANGAN OB'EKTNI QABUL QILIB OLISH

10.1. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni taraflar bajargandan keyin, shuningdek qurilish tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning amaldagi qoidalariga (SHNK 3.01.04-04) binoan amalga oshiriladi.

10.2. Ob'ektni qabul qilish Buyurtmachi uni foydalanishga topshirishga tayyorligi to'g'risida Pudratchidan yozma xabarnoma olgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida amalga oshiriladi.

10.3. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin Buyurtmachiga ushbu shartnomaning 4.1.- bandiga binoan Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda 2 (ikki) nusxada ijro xujjatlarini topshiradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu xujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

10.4. Qabul qilingan kundan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

### XI. KAFOLATLAR

11.1. Pudratchi quyidagilarga kafolat beradi:

- barcha ishlarni to'liq xajmda va ushbu shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda va amaldagi qonunchilikka muvofiq bajarishga;

- loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq, barcha ishlarni bajarish sifatiga;

- qurilishda ishlatiladigan qurilish materiallari, uskunalar va butlovchi qismlar, konstruksiya va tizimlar sifati, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligiga;

- ishlarni qabul qilish paytida va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishga;



- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalar, ishlash qoidalariga muvofiq ishlashiga.

11.2. Ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallar va ishlarning kafolat muddati, tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi.

11.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga mos ravishda uzaytiriladi.

11.4. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi. Agar Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Qurilish sohasida Toshkent viloyat hududiy nazorat inspeksiyasi" tomonidan amalga oshiriladi.

11.5. Nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish Pudratchi tomonidan o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Agar Pudratchi shikoyat dalolatnomasida ko'rsatilgan muddatda bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va kamchiliklarni, shu jumladan uskunalarining mumkin bo'lgan nuqsonlarini bartaraf etmasa, Buyurtmachi ushbu shartnomaning 6.3-bandida nazarda tutilgan kafolat miqdorini Pudratchidan ushlab qolishga haqlidir.

## **XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH**

12.1. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga oshgan holda, Pudratchi tomonidan qurilish ishlarini bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari, qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifatini pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa asoslarda.

12.2. Pudratchi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir:

- Buyurtmachi tomonidan ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa asoslarda.

12.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish ob'ekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

12.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

12.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

12.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xolatlar bundan mustasno.

12.7. Pudratchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, Buyurtmachi agar Pudratchini ishdan chetlashtirish va tender komissiyasining qarorini bekor qilish to'g'risida tender komissiyasining bayonnomasi mavjud bo'lsa, shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.

## **XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI**

13.1. Taraflardan biri shartnomada majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga etkazilgan zararlarni qoplaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun xujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

13.2. Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shu jumladan:



13.2.1. Buyurtmachi bajarilgan ish uchun to'lovlarni kechiktirgani uchun Pudratchiga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov miqdorining 0,4 foizi miqdorida jarima to'laydi, lekin muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

13.2.2. Belgilangan tartibda qabul qilingan, bajarilgan ish uchun to'lashdan asossiz ravishda to'liq yoki qisman rad etgan taqdirda. Buyurtmachi Pudratchiga u rad etgan yoki undan qochgan summaning 5 foiz miqdorida jarima to'laydi.

13.2.3. Shartnomaga muvofiq Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda rad etgan taqdirda, Buyurtmachi Pudratchiga "Qurilish sohasida Toshkent viloyat hududiy nazorat inspeksiyasi"ning ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirda, u rad etgan yoki tasdiqlamagan summaning 0,1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

13.3. Pudratchining ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Pudratchi mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shu jumladan:

13.3.1. ob'ektni ushbu shartnomaning 5.2-bandi ko'rsatilgan muddatda foydalanishga topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Agar Pudratchi ushbu ob'ekt bo'yicha ishlarni o'z vaqtida yakunlagan bo'lsa, lekin ushbu shartnomaning 3.2-bandiga asosan shartnoma shartlarini bajarmagan bo'lsa, u holda Pudratchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari miqdorida jarima to'laydi, bunda jarimaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

13.3.2. Agar bajarilgan ishlar sifati bo'yicha standartlar, texnik shartlar, loyiha hujjutariga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Pudratchidan sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar uchun jarima pudratchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bank muassasasiga ishlarning sifati lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin o'n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan o'n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

13.3.3. Ishni bajarishda va ob'ektni qabul qilishda Pudratchi tomonidan yo'l qo'yilgan va Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishning kechikishi uchun shikoyat dalolatnomasida belgilangan muddatlarda Pudratchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida jarima to'laydi, lekin noto'g'ri bajarilgan ishlarning shartnoma qiymatining 5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

13.3.4. Agar pudratchi shikoyat dalolatnomasida belgilangan muddatlarda kamchiliklarni bartaraf etmagan bo'lsa, Buyurtmachi ushbu shartnomaning 13.3.2. va 13.3.3.-bandlariga muvofiq jarimaga tortish huquqini o'zida saqlab qolgan holda, o'zi yoki boshqa Pudratchi tomonidan dastlabki kamchiliklarni bartaraf etish huquqiga ega.

13.3.5. SHartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi uchun ushbu moddada nazarda tutilgan sanksiyalardan tashqari, shartnomani buzgan tomon boshqa tomonga u qilgan harajatlar, mol mulkning yo'qolishi yoki zararlanishi, shu jumladan yo'qolgan foydalar, jarimalar va jarimalar bilan qoplanmagan zararni qoplaydi.

13.3.6. Kechiktirilganligi yoki boshqa noto'g'ri bajarilganligi uchun jarimalar va penyalarni to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

#### XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

14.1. Ushbu pudrat shartnomasi amal qilish davomida yuzaga keladigan nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

14.2. Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda nizolar Yuqori Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.



## XV. ALOHIDA SHARTLAR

15.1. Mazkur shartnoma imzolangan keyin taraflar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

15.2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, yordachi pudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega emas.

15.3. Mazkur shartnoma bo'yicha barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va taraflar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

15.4. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni, taraflar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

15.5. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

15.6. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollarda, amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

15.7. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega 2 asl nusxada imzolangan.

15.8. Pudrat shartnomasiga ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati:

Ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallari.

## XVI. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

### Yuqori Chirchiq tuman XTB

Yangibozork. Mustaqillik ko'chasi 14uy

Shx/r: 401722860272397092100075001

STIR: 200443456

OKONX: 97600

Yuqori Chirchiq tuman buyicha Gaznachilik bulimi

X/r: 23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shahar BBXKKM

STIR: 201122919

MFO: 00014 Tel. 98 33-575

Raxbar

U. Urunboyeva

Pudratchi :

ООО МЕГА-ОСИYO

Ташкентская  
область, Юкори чирчикский  
р/н, КФЙ Жамбул, Заравшон мах.  
МФО 01037

БАНК АКБ ККБ Сергели ф/л

ИНН 203 805 968

Р/с 20208 000 104 152 550 001

ОКЭД 41202


Yuqori Chirchiq tuman buyicha Gaznachilik bulimi

X/r: 23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shahar BBXKKM

STIR: 201122919

MFO: 00014 Tel. 98 33-575

Raxbar (imzo)  Нурматов Р.Х.





## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'GRISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihaning nomi:

Keyingi o'rinlarda **“Buyurtmachi”** deb yuritiladigan Yuqori Chirchik tumani **Xalq ta'limi bo'limi** nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi rahbar **U.Urunboeva** . bir tomondan va keyingi o'rinlarda **“Pudratchi”** deb yuritiladigan **“OOO MEGA-OSIYO” МЧЖ** “nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor **Нурматов Р.Х** ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda **“Taraflar”** deb yuritiladi, mazkur pudrat shartnomasini, keyingi o'rinlarda **“Shartnoma”** deb yuritiladi, quyidagilar qurilish ishlarini bajarish to'g'risidagi shartnoma.

3 Ushbu loyihasi O'zbekiston Respublikasi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi qonunining talablariga mos keladi.

Shartnomaning moliyaviy jihatlari bilan bog'liq masalalar shartnomaning huquqiy ekspertizasi predmetiga kirmaydi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi**  
**Bosh yuriskonsulti**  
1-avgust 2022-yil

**R.Tuxtayev**





**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**  
Юқори Чирчиқ тумани  
Юқори Чирчиқ тумани ХТБ бошлиғи  
У.О.Урунбоева  
2022 йил

Юқори Чирчиқ тумани Халқ таълими бўлими харид комиссиясининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 13-апрелдаги ПҚ-5072 сонли қарори буйича Юқори Чирчиқ тумани Халқ таълими бўлими буюртмачилигида Тошкент вилояти Юқори Чирчиқ тумани Дархон мфйда 12 мактаб Спорт залини жорий таъмирлаш ишларининг бажариш учун қурувчи ташкилотларнинг таклифларини ўрганиш натижалари юзасидан ўтказган йиғилиш

**БАЁННОМАСИ №10**

"03" август 2022 йил

Юқори Чирчиқ тумани

Қатнашдилар: **Комиссия раиси**  
**Комиссия аъзолари**

У.Урунбоева—Халқ таълими бўлими мудира  
Б.Султанов—Халқ таълими бўлими бош мухандиси  
В.Уралова - Халқ таълими бўлими бош хисобчиси  
З.Эшматова - Халқ таълими бўлимининг касаба уюшма раиси  
А.Нишонов - Халқ таълими бўлими махсус қурилиш ва эксплуатация бўлимининг козонлар бўйича мутахасис

Қатнашмаганлар:

Йўқ

**Кўрилганмасала:** Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22-апрелдаги “Давлат харидлари”га 684-сонли қонунга асосан [harid.uzex.uz](http://harid.uzex.uz) махсус ахборот портали орқали электрон жойлаштирилган 2022 йил 16-июнда 102690-сонли ЛОТ рақами харид комиссиясининг Юқори Чирчиқ тумани Дархон мфйда 12 мактаб Спорт залини жорий таъмирлаш бўйича 2022 йил 02-августда тузилган 10-сонли баённомаси натижаларини ўрганиш.

**Эшитилди:**

Харид комиссияси раиси, **Халқ таълими бўлими** бошлиғи У.Урунбоева сўзга чиқиб, комиссия аъзоларини Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 13-апрелдаги ПҚ-5072-сонли қарор дастурларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ва Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20-майдаги 276-сон қарори юзасидан.

Юқори Чирчиқ тумани Дархан мфйда 12 мактаб Спорт залини жорий таъмирлаш учун давлат харидларининг махсус ахборот порталида энг яхши таклифларни саралаб олиш тўғрисидаги эълон 2022 йил 29-июлда 124748-сонли ЛОТ рақами билан 870 277 461 (саккиз юз етмиш миллион икки юз етмиш ети минг торт юз олтмиш бир) сўмга энг мақбул таклифни тақдим этган “ООО МЕГА-ОСИЙО” МЧЖ “билан шартнома балли тизимга асосан электрон равишда тузилди.



**Таплаш иштирокчиларига қўйилган талаблар:** Иштирокчилар қуйидаги мезонларга мувофиқ бўлиши керак: шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги; шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуққа эгалик; солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги; ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги; Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги.

Харид комиссияси аъзолари иш бажарувчилар томонидан ҳамда давлат харидларининг электрон тизимига жойлаштирилган муҳокама натижаларини атрофлича ўрганиб чиқиб, Юқори Чирчиқ тумани Дархан мфйда 12 мактаб Спорт залини жорий таъмирлаш учун ишларини бажаришни **“ООО MEGA-OSIYO” МЧЖ** “га топшириш кераклигини, сабаби унинг тизимдаги тижорат таклифи Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида” Қонунининг талабларига мувофиқ келишини таъкидладилар ва бир овоздан

### **ҚАРОР ҚИЛИНДИ:**

1. Мазкур 2022 йил 29-июльда 124748-сонли LOT бўйича расмийлаштирилган баённома давлат харидларининг электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилган даврда саралаш иштирокчилари томонидан саралаш ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли **“ООО MEGA-OSIYO” МЧЖ** “ғолиб деб топилсин.

2. Юқори Чирчиқ тумани Дархан мфйда 12 мактаб Спорт залини жорий таъмирлаш учун ишларини бажариш учун харид комиссия томонидан ғолиб деб топилган **“ООО MEGA-OSIYO” МЧЖ** “ билан баённомада кўрсатилган нархлар доирасида шартнома тузилсин.

3. Ушбу баённома ижросини назорат қилиш бош муҳандис **Б.Султанов** зиммасига юклатилсин.

Юқоридагиларни тасдиқлаб, имзо чекувчилар:

У.Урунбоева

В.Уралова -

З.Эшматова

А.Нишонов

Б.Султанов-



**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 124748 на приобретение ОПЕН БЮДЖЕТ  
2022 ЮКОРИ ЧИРЧИК ТУМАНИ ДАРХАН МФЙ 12 МАКТАБНИ СПОРТ ЗАЛИНИ ЖОРИЙ  
ТАМИРЛАШ**

Способ проведения электронный

Дата 29.07.2022

Время рассмотрения 29.07.2022 14:33

Конкурсная комиссия Юкори Чирчик туман халк таълими бўлими (Распорядитель), (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	URUNBOYEVA UMIDA OBLAKULOVNA	ХТБ мудир	Юкори Чирчик тумани Халк таълими бўлими
<b>Секретарь комиссии</b>	RASULOVA SAIDA MAVLONJON QIZI	Шартномалар бўйича бухгалтер	Юкори Чирчик тумани Халк таълими бўлими
<b>Член комиссии</b>	ESHMATOVA ZILOLA USMANALIYEVNA	Касаба уюшма раиси	Юкори Чирчик тумани Халк таълими бўлими
<b>Член комиссии</b>	NISHANOV ANVAR ABDIYAKUB O'G'LI	козонлар бўйича бош мутахасис	халк таълими
<b>Член комиссии</b>	URALOVA VENERA ABDUKULOVNA	Главный бухгалтер	Юкори Чирчик тумани Халк таълими бўлими
<b>Член комиссии</b>	SULTANOV BEKNIYOZ BEKTASH O'G'LI	курилиш бўйича мухандист	ХАЛК ТАЪЛИМИ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 29.07.2022 года № лота 124748.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту нежилых зданий</b>
Подробное описание	ОПЕН БЮДЖЕТ 2022 ЮКОРИ ЧИРЧИК ТУМАНИ ДАРХАН МФЙ 12 МАКТАБНИ СПОРТ ЗАЛИНИ ЖОРИЙ ТАЁРЛАШ
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	884 064 139.00
Стартовая сумма	884 064 139.00
Валюта	UZS

